



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-avgust
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 890,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **19,4** mln. AQSh dollariga yoki **6,7** % ga o'sdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	1 770,8	1 890,2	106,7	x
Eksport 	339,2	548,4	161,7	100,0
 tovarlar	336,8	544,5	161,6	99,3
 xizmatlar	2,4	3,9	162,5	0,7
Import 	1 431,6	1 341,8	93,7	100,0
 tovarlar	1 366,0	1 286,9	94,2	95,9
 xizmatlar	65,6	54,9	83,7	4,1
 Saldo	-1 092,4	-793,4	x	x




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **548,4** mln. AQSh dollariga (**61,7** % ga o'sdi) va import hajmi **1 341,8** mln. AQSh dollariga (**6,3** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **793,4** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

ANDIJON VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda XXR, Turkiya, Xindiston, Ukraina, Polsha, Eron Islom Respublikasi va Moldova Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA 3 TA YIRIK FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-avgust)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (**216,2** mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (**203,5** mln. AQSh dollari), Ukraina (**10,6** mln. AQSh dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Andijon viloyati jahonning **66** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasi (**41,7** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**15,2** %), Qozog'istonda (**11,4** %), Qirg'iz Respublikasi (**10,8** %) va Rossiya Federatsiyasida (**7,8** %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Koreya Respublikasi	904,3	916,0	788,8
	<i>Eksport</i>	0,7	0,4	0,5
	<i>Import</i>	903,6	915,6	788,3
	Xitoy Xalq Respublikasi	192,6	209,2	287,7
	<i>Eksport</i>	86,2	37,3	63,4
	<i>Import</i>	106,4	171,9	224,3
	Qozog'iston	73,7	89,9	216,2
	<i>Eksport</i>	60,7	81,5	210,2
	<i>Import</i>	13,0	8,4	6,0
	Qirg'iz Respublikasi	148,5	154,3	203,5
	<i>Eksport</i>	128,4	138,7	181,4
	<i>Import</i>	20,1	15,6	22,1
	Rossiya Federatsiyasi	150,7	186,1	147,0
	<i>Eksport</i>	45,3	49,4	48,5
	<i>Import</i>	105,4	136,7	98,5
	Turkiya	31,9	44,9	58,2
	<i>Eksport</i>	9,0	6,9	16,2
	<i>Import</i>	22,9	38,0	42,0
	AQSh	45,1	12,3	34,9
	<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,2
	<i>Import</i>	44,8	12,1	34,7
	Germaniya	14,5	11,8	14,7
	<i>Eksport</i>	0,4	0,1	0,6
	<i>Import</i>	14,1	11,7	14,1
	Xindiston	7,0	7,6	11,3
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,2
	<i>Import</i>	7,0	7,4	11,1
	Tailand	4,3	41,1	11,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	4,3	41,1	11,0



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Ukraina	6,4	7,8	10,6
	<i>Eksport</i>	4,1	6,5	8,1
	<i>Import</i>	2,3	1,3	2,5
	Italiya	10,1	8,1	9,7
	<i>Eksport</i>	0,1	0,6	2,1
	<i>Import</i>	10,0	7,5	7,6
	Chexiya	8,8	13,8	9,5
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
	<i>Import</i>	8,8	13,7	9,5
	Braziliya	8,0	12,1	9,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	7,9	12,1	9,0
	Polsha	5,1	5,6	7,7
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	0,8
	<i>Import</i>	4,9	5,2	6,9
	Eron Islom Respublikasi	4,7	2,3	6,4
	<i>Eksport</i>	2,2	0,8	0,3
	<i>Import</i>	2,5	1,5	6,1
	Shveysariya	17,0	0,6	5,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	17,0	0,6	5,8
	Avstriya	5,5	2,4	4,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	5,5	2,4	4,5
	Slovakiya	2,4	4,3	4,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	2,4	4,3	4,3
	Fransiya	1,3	0,9	4,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1,3	0,9	4,2



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust 2021- yil) *



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 890,2	106,7
Andijon sh.	224,9	85,8
Xonobod sh. tumanlar :	65,8	145,6
Oltinko'l	27,6	105,6
Andijon	47,7	99,0
Baliqchi	5,0	67,7
Bo'ston	16,3	142,8
Buloqboshi	11,0	119,9
Jalaquduq	28,9	179,0
Izboskan	11,8	88,3
Ulug'nor	17,8	169,4
Qo'rg'ontepa	35,8	96,0
Asaka	1 242,2	107,3
Marhamat	20,2	161,9
Shahrixon	44,3	200,5
Paxtaobod	11,8	72,3
Xo'jabod	76,8	102,9

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Asaka – 1 242,2

Andijon sh. – 224,9

Xo'jabod – 76,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Paxtaobod – 11,8

Buloqboshi – 11,0

Baliqchi – 5,0

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka **65,7 %** ulush bilan **1 242,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi **0,3 %** ulush bilan **5,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.





Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlari natijasida, 2021-yilning yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **5,8 %** ga ko'paygan.

ANDIJON VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-avgust oylarida 2020- yilga nisbatan **1,5 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **68,7 %** ni tashkil etdi.

ANDIJON VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



1992-yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi)ga a‘zo bo‘ldi. Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-avgust holatiga **591,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **456,9** mln. AQSh dollariga yetgan bo‘lsa, import – **134,1** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog‘iston (**36,6 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**34,4 %**), Rossiya Federatsiyasi (**24,8 %**), Ukraina (**1,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-avgust)



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlari soni **354** tani tashkil etib, ular tomonidan **548,4** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020 - yilning mos davriga nisbatan **61,7** % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,3** % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob – uskunolari (**39,8** %), turli xil tayyor mahsulotlar (**27,5** %), sanoat tovarlari (**26,2** %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,4** %), nooziq-ovqat xomashyo (**1,2** %) hamda kimyoviy vositalar (**0,2** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	339,2	548,4	96,3	161,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	32,0	24,2	40,4	75,7	9,4	4,4
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	183,5	52,5	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,6	6,7	80,1	29,8	6,6	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,1	55,2	18,3 b.	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	0,0	97,7	0,1	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,6	1,1	189,2	67,6	0,5	0,2
Sanoat tovarlari	74,3	143,3	66,7	192,7	21,9	26,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	99,7	218,2	161,8	2,2 b.	29,4	39,8
Turli xil tayyor buyumlar	106,1	150,8	155,9	142,1	31,3	27,5
Xizmatlar	2,4	3,9	97,9	162,0	0,7	0,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	22 027,7	73,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 025,1	173,6
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	359,2	136,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	309,9	46,3
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	119,5	52,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 786,8	108,5
Moy olinadiga uruglar va mevalar	1 193,1	2,7 b.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	712,1	4,0
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom- ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	38,4	249,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	52,2	18,3 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,2	0,1
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	15,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	340,1	134,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	225,3	97,7
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	220,6	78,0
Boshka joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	137,8	82,5

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	134 161,1	2,0 b.
Metalldan tayyorlangan buyumlar	4 527,2	71,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 983,6	126,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar	1 634,7	13,3 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	206 333,0	2,4 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	10 140,7	86,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 218,0	171,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	239,9	150,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	138 717,2	152,1
Poyabzal	7 390,4	74,4
Har xil tayyor buyumlar	2 744,5	70,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	1 026,2	174,1

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi ko'paydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-avgustdagi **69,7 %** dan 2021-yilning yanvar-avgustida **83,3 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **30,3 %** dan **16,7 %** ga kamaydi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust, % da)

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining **38,3 %**), Qirg'iz Respublikasi (**33,1 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**11,6 %**), Rossiya Federatsiyasi (**8,8 %**), Turkiya (**2,9**), Ukraina (**1,5 %**) va Italiya (**0,6 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **96,8 %** ni tashkil etmoqda.



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Qozog'iston	81,5	210,2	134,3	2,6 b.	2	1
Qirg'iz Respublikasi	138,7	181,4	108,0	130,8	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	37,4	63,4	43,3	169,7	4	3
Rossiya Federatsiyasi	49,4	48,5	108,9	98,3	3	4
Turkiya	6,9	16,2	76,4	2,3 b.	5	5
Ukraina	6,5	8,1	156,6	123,9	7	6
Moldova Respublikasi	1,6	3,1	87,0	198,4	9	7
Ozarbayjon	6,9	2,4	4,0 b.	35,1	6	8
Italiya	0,6	2,1	11,5 b.	3,6 b.	14	9
Pokiston	0,0	2,1	0,7	282,4 b.	33	10
Afg'oniston	1,6	2,0	43,5	125,6	8	11
Belarus Respublikasi	1,5	1,3	85,2	81,5	10	12
Tojikiston	1,5	1,1	112,9	76,1	11	13
Polsha	0,4	0,8	188,9	2,2 b.	18	14
Turkmaniston	0,0	0,8	20,4	43,8 b.	31	15
Germaniya	0,1	0,6	33,2	5,3 b.	25	16
Latviya	0,6	0,6	58,0	97,6	15	17
Koreya Respublikasi	0,4	0,5	52,5	122,3	17	18
Litva	0,6	0,5	4,2 b.	82,6	16	19
Ruminiya	0,2	0,4	141,5	191,4	21	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-avgust)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	548,4	161,7
Andijon sh.	64,7	185,3
Xonobod sh.	44,9	291,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	18,3	93,8
Andijon	17,0	68,8
Baliqchi	2,2	33,4
Bo'ston	14,8	162,9
Buloqboshi	6,0	97,5
Jalaquduq	23,4	185,9
Izboskan	8,9	76,7
Ulug'nor	8,8	177,6
Qo'rg'ontepa	21,2	122,3
Asaka	226,4	190,9
Marhamat	11,3	137,4
Shahrixon	21,1	203,3
Paxtaobod	6,5	64,1
Xo'jaobod	51,3	180,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Asaka – 226,4

Andijon sh. – 64,7

Xo'jaobod – 51,3

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Ulug'nor – 8,8

Buloqboshi – 6,0

Baliqchi – 2,2

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **41,3** % ulush bilan **226,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi tumani **0,4** % ulush bilan **2,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **24,0** mln. AQSh dollari qiymatli **51,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,8** mln. AQSh dollarida kamayish kuzatilib, **22,2** % ga pasaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **12,0** mln. AQSh dollariga teng **35,1** ming tonna sabzavot, shuningdek, **9,9** mln. AQSh dollari qiymatidagi **14,7** ming tonna mevalar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-avgust)



Meva va rezavorlar

5 205,0 -
tonna
5 499,1-
ming
AQSh
dollar



Uzum

1 877,4-
tonna
1 709,7-
ming
AQSh
dollar



Qovun va tarvuz

7 581,8-
tonna
2 740,9-
ming
AQSh
dollar



Yer yong'oq

788,5 -
tonna
1 038,4 -
ming AQSh
dollar



Sabzavotlar

35 090,0 -
tonna
12 036,8 -
ming
AQSh
dollar



Qalampir

506,9 -
tonna
970,3 -
ming
AQSh
dollar

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Latviya, Turkmaniston, Qozog'iston hamda Belarus Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **4,4** % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-avgust)



Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	35 034,5	14 470,1	65,7
 Rossiya Federatsiyasi	12 574,1	6 560,7	29,8
 Germaniya	109,9	264,4	1,2
 Latviya	731,5	251,5	1,1
 Turkiya	80,5	154,1	0,7
 Turkmaniston	790,7	110,2	0,5
 Qozog'iston	96,1	50,0	0,2
 Armaniston	44,0	47,9	0,2
 Ukraina	138,2	40,7	0,2
 Belarusiya	90,8	37,3	0,2
 Moldova Respublikasi	80,5	19,1	0,1
 AQSH	20,9	11,4	0,1
 Xitoy Xalq Respublikasi	25,0	9,3	0,0
 Koreya Respublikasi	0,3	1,0	0,0

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining (65,7 %i), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 2,2 baravar ko'pdir.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom-ashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **273,2** mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **49,8** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **71,5** % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**50,7** %), paxtadan yigirilgan ip (**30,3** %) asosiy ulushni egallagan yil boshidan **252** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **24** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)



		2019-yil	2020-yil	2021-yil
Tovarlar nomi		165 301,1	159 266,8	273 246,9
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	55 279,2	90 012,5	138 511,0
	Paxtadan yigirilgan ip	97 026,8	44 698,3	82 746,0
	Naqshli mato	2 169,9	12 322,6	28 972,3
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	917,2	2 980,7	8 874,8
	Paxta mahsulotlari	3 447,8	1 458,6	4 288,1
	Paxtadan gazlamalar	669,0	2 375,5	5 468,4
	Ipak va ipak mahsulotlari	5 544,8	4 950,5	2 426,1
	Gilamlar	1,2	1,6	637,0
	Boshqalar	245,2	466,5	1 323,2

DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Qirg'iz Respublikasi	35,7	76,8	140,0
	Xitoy Xalq Respublikasi	85,1	37,3	63,1
	Rossiya Federatsiyasi	28,4	29,5	32,4
	Turkiya	3,2	6,3	13,7
	Qozog'iston	5,4	2,3	7,2
	Ukraina	1,5	1,7	4,4
	Moldova Respublikasi	1,8	1,6	3,1
	Italiya	0,1	0,6	2,1
	Pokiiston	-	-	1,9
	Ozarbajjon	0,6	0,3	1,8
	Belarus Respublikasi	0,6	0,5	0,9
	Polsha	-	0,4	0,8
	Ruminiya	0,1	0,2	0,4
	Vetnam	-	0,1	0,3
	Eron	1,7	0,8	0,3
	Boshqa davlatlar	0,8	0,7	0,8

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg'iz Respublikasi (**140,0** mln. AQSh dollari – **51,2** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**63,1** mln. AQSh dollari – **23,1** %), Rossiya Federatsiyasi **32,4** mln. AQSh dollari – **11,9** %) va Turkiya (**13,7** mln. AQSh dollari – **5,0** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **3,9** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **0,7 %** ini tashkil etib, 2020 - yilga nisbatan **62,0 %** ga o'sganligi kuzatildi. Moliyaviy xizmatlar (**35,8 %**), transport xizmatlari (**28,8 %**), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan (**22,3 %**) hamda safarlar (turizm) (**13,2 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-avgust)



2021 - yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **1 341,8** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **93,7** % ga etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob - uskunalari (**65,7** %), sanoat tovarlari (**17,7** %), turli xil tayyor buyumlar (**5,4** %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**4,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,7** mln. AQSh dollariga kamaydi va **1 341,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **54,9** mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	1 431,6	1 341,8	106,3	93,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,1	13,3	76,9	120,3	0,8	1,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	30,0	24,7	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,7	13,0	163,9	77,7	1,2	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,4	7,2	96,6	97,7	0,5	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,9	0,8	228,4	41,3	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,7	61,3	94,6	89,4	4,8	4,6
Sanoat tovarlari	277,6	237,3	106,7	85,5	19,4	17,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	904,8	881,3	111,9	97,4	63,2	65,7
Turli xil tayyor buyumlar	77,8	72,6	97,4	93,2	5,4	5,4
Xizmatlar	65,6	55,0	70,7	83,8	4,6	4,1



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Mung. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	6 293,5	180,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 977,2	70,6
Sabzavotlar va mevalar	1 836,0	2,4
Kofe , choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 268,0	125,3
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	2,3	24,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	3 826,9	40,7
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	2 793,7	126,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 842,3	71,5
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom- ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	1 778,0	2,2 b.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	5 286,6	96,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash metallar	1 902,9	101,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	748,4	38,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	49,9	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	27 845,2	105,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	9 969,2	66,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 389,0	94,3
Organik kimyo moddalari	4 364,8	64,7

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	78 720,9	70,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan tasniflanmagan	59 431,4	95,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar	47 334,5	88,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 363,2	102,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	573 050,9	85,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	112 683,4	129,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	109 051,6	135,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	39 673,6	121,7
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	24 438,0	132,9
Har xil tayyor buyumlar	24 210,5	85,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	19 461,0	77,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 601,4	58,2

Umumiy tovarlar importi o'tgan yilga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlarida o'sish kuzatildi. Masalan, tirik hayvonlar – **6 293,5** ming. AQSh dollari (o'sish – **180,2**), tabiiy kauchuk – **2 793,7** ming. AQSh dollari (o'sish – **126,9** %), 56-bo'linga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom- ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari) – **1 778,0** ming. AQSh dollari (o'sish – **217,7**).

MDH mamlakatlaridan import ulushi 2020- yilning shu davriga nisbatan **1,5 %** ga kamaygani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan **0,8 %** ga pasayish qayd etildi va ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra **10,0 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida **59** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, AQSh, Qirg'iz Respublikasi va Tailand) jami importning **91,0 %** ulushini tashkil qildi, bu **1 223,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI**
(2021- yil
yanvar-
avgust, % da)



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Koreya Respublikasi	915,6	788,3	101,3	86,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	171,9	224,3	161,6	130,5	2	2
Rossiya Federatsiyasi	136,8	98,5	129,7	72,0	3	3
Turkiya	38,0	42,0	165,9	110,6	5	4
AQSh	12,1	34,7	26,9	2,9 b.	9	5
Qirg'iz Respublikasi	15,6	22,1	77,8	141,3	6	6
Germaniya	11,7	14,1	82,6	120,8	10	7
Hindiston	7,5	11,1	106,1	148,6	13	8
Tailand	41,1	11,0	9,5 b.	26,8	4	9
Chexiya Respublikasi	13,7	9,5	156,4	69,1	7	10
Braziliya	12,1	9,0	152,6	74,3	8	11
Italiya	7,5	7,6	74,8	101,7	12	12
Polsha	5,2	6,9	106,0	132,7	14	13
Eron (Islom Respublikasi)	1,5	6,1	59,7	4,0 b.	20	14
Qozogiston	8,4	6,0	64,6	71,5	11	15
Shveysariya	0,6	5,8	3,5	9,7 b.	33	16
Avstriya	2,4	4,5	44,4	185,8	18	17
Slovakiya	4,3	4,3	177,8	98,8	15	18
Fransiya	0,9	4,2	67,6	4,6 b.	27	19
Yaponiya	0,3	3,6	16,3	11,4 b.	41	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021- yil yanvar-avgust)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 341,8	93,7
Andijon sh.	160,3	70,5
Xonobod sh.	21,0	70,3
tumanlar:		
Oltinko'l	9,2	140,6
Andijon	30,7	130,8
Baliqchi	2,8	3,6 b.
Bo'ston	1,6	65,9
Buloqboshi	4,9	167,0
Jalaquduq	5,5	154,3
Izboskan	2,9	164,0
Ulug'nor	9,0	162,1
Qo'rg'ontepa	14,6	73,2
Asaka	1 015,8	97,8
Marhamat	8,9	2,1 b.
Shahrixon	23,2	198,0
Paxtaobod	5,3	85,8
Xo'jaobod	25,6	55,3

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari**

Asaka – 1 015,8

Andijon sh. – 160,3

Andijon – 30,7

**Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari**

Paxtaobod – 5,3

Baliqchi – 2,8

Bo'ston – 1,6

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **75,7 %** ulush bilan **1 015,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bo'ston tumani **0,1 %** ulush bilan **1,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **54,9** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **4,1** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **16,2** % ga kamaygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushni intellektual mulkdan foydalanganlik bilan bog'liq xizmatlar (**44,1**%), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**41,4** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari (**11,4** %) va transport xizmatlari (**1,8** %) ga tegishli bo'ldi.



Intellektual mulkdan foydalanganlik bilan bog'liq xizmatlar

44,1

Boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar

41,4

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari

11,4

Transport xizmatlari

1,8

Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari

1,3



Pandemiya paytida kiritilgan karantin cheklavlari xizmat ko'rsatish sohasiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar tomonidan xalqaro transport qatnovi tranzitiga qo'yilgan cheklavlarning natijasida transport xizmatlari importi **73,7** % ga kamayib, **1,0** million AQSh dollarini tashkil etdi.

❖ Shu bilan birga, 2020- yilning shu davriga nisbatan barcha xizmatlar importi kamayishi kuzatilgan.


MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob - uskunalari hajmi **881,3** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,6** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **65,7** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-avgust)



Mashina va transport uskunalari importi hajmining kamayishiga, avtomobillar (**14,3** foizga kamaygan), energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar (**16,6** foizga kamaygan), boshqa transport uskunalari (**46,4** foizga kamaygan).

SANOAT TOVARLARI IMPORTI




2021- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **237,3** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,5 %** ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **17,7 %** ga yetdi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-avgust)



Koreya Respublikasi

77,1 mln. AQSh dollari
ulushi – 32,5 %



Rossiya Federatsiyasi

59,7 mln. AQSh dollari
ulushi – 25,2 %



Xitoy Xalq Respublikasi

55,1 mln. AQSh dollari
ulushi – 23,2 %



Qirg'iz Respublikasi

16,6 mln. AQSh dollari
ulushi – 7,0 %



Chexiya

5,3 mln. AQSh dollari
ulushi – 2,2 %



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (**78,7** mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (**59,4** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**47,3** mln. AQSh dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**25,4** mln. AQSh dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan buyumlar (**19,7** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (74) 224 82 57

